



№ 3 / 2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

UO'K: 379.6.074

## TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHLARINI OSHIRUVCHI TA'LIM METODLARI

**Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi**

*Andijon davlat pedagogika insituti*

### **Annotatsiya.**

*Maqolada kreativlikning psixologik mazmuni, uning tarixiy rivojlanishi, ilmiy konsepsiyalardagi talqinlari hamda shaxs rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativlikni belgilovchi biologik, kognitiv, ijtimoiy-madaniy va ta'limiy omillar tizimli yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot zamonaviy psixologiya, pedagogika va neyropsixologiya yo'nalishlarining nazariy manbalariga tayangan.*

### **Kalit so'zlar:**

*kreativlik, divergent fikrlash, ijodkorlik, motivatsiya, intellekt, individuallik, ijtimoiy omillar.*

### **Аннотация.**

*В статье анализируется психологическое содержание креативности, её историческое развитие, интерпретации в научных концепциях и её роль в развитии личности. Также на систематическом уровне рассматриваются биологические, когнитивные, социокультурные и педагогические факторы, определяющие креативность. Исследование основано на теоретических источниках современной психологии, педагогики и нейропсихологии.*

### **Ключевые слова:**

*креативность, дивергентное мышление, креативность, мотивация, интеллект, индивидуальность, социальные факторы.*

### **Abstract.**

*The article analyzes the psychological content of creativity, its historical development, interpretations in scientific concepts, and its role in personality development. Also, biological, cognitive, socio-cultural, and educational factors determining creativity are covered based on a systematic approach. The study is based on the theoretical sources of modern psychology, pedagogy, and neuropsychology.*

### **Keywords:**

*creativity, divergent thinking, creativity, motivation, intellect, individuality, social factors.*

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi sa'y harakatlarining biri - bu pedagog kadrlarning zamon talablariga xamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chukur bilim, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga "kreativlik" degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda.

O'qituvchi faoliyatining maqsadi bu - ta'lim oluvchining har tomonlama: psixik, intellektual, axloqiy va aqliy taraqqiyotidir. Oliy maktab pedagogikasining o'ziga xosligi shundaki, o'qituvchidan jamiyatning ijtimoiy vazifalarini shaxsiy qabul qilish, maqsad, burch va aniq xatti-harakatlarni tushunish, talabalarning ehtiyojlarini inobatga olib, belgilangan o'quv faoliyatini maqsadli tashkillashtirish talab etiladi.

---

Ta'limdagi samarali o'zaro-ta'sir modeli negizida yotuvchi bir qancha tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Jahonda ta'lim tizimini transformatsiyalash, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va o'qitish jarayonida qo'llash, fanlarning metodik ta'minotini takomillashtirish, o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, darslarda animatsion, audio-vizual vositalarni hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalarni eng so'nggi pedagogik qonuniyatlar asosida ishlab chiqib, o'quvchilarda o'ziga ishonch, fanga qiziqish, texnologiya sevarlik, o'zgarlar texnologiyasini qadrlash, zamonaviy bilim olish, hunar egallashga bo'lgan qiziqish, mustaqil kasb tanlash, kreativlik xislatlarini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Bu esa texnologiya fanini o'qitishda elektron axborot ta'lim muhitida foydalanish bo'yicha metodik tizimni yaratishni taqozo etmoqda. [1]

Kreativlikni rivojlantirish treningidagi kreativlik tushunchasi lotincha, inglizcha "create"- yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor, ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod degan ma'nosini anglatadi. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Kreativlik-bu so'zni sodda tilda tushintiradigan bo'lsak, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma'nolarni anglatadi. Ya'ni bu bir xillikdan qochish, nimagadir yangicha yondashish ko'nikmasidir.

Kreativlik bu xar kim xar xil tushunadi, lekin to'g'ridan-to'g'ri tushinadigan bo'lsak kreativlik bu ijodkorlik, ya'ni kreativ so'zi ijod degan ma'noni anglatadi. Uning tag zaminida esa originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Misol uchun biror bir narsani ijod orqali chiroyli, boshqalardan chiroyli qilib chiqarib berish desak bo'ladi. Misol qiladigan bo'lsak oddiy stulni tasavvur qilamiz. Stulning oddiysi bu to'rtta oyog'i, bitta o'rindigi va bitta suyanchig'i bo'ladi. Agar buni kreativlashtirsak balki uchta oyog'i bo'lishi mumkin, balki o'rindig'i boshqacharoq bo'lishi mumkin, yoki dizayni umuman boshqacharoq bo'lishi mumkin. Atrofga boqsangiz xar tomonda inson ijodkorligining beqiyos va xayratlanarli namunasiga duch kelasiz. Bularning barchasi inson tafakkuri va tasavvuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy ko'ringan kitob, musiqa, bino, samolyot va hatto lampalar xam qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan. Keyinchalik aql idrok samarasi olaroq yaratilgan. Kreativlikni shakllantirishda tasavvur muhim ro'l o'ynaydi. Kreativ insonlar har bir sohada, har bir bajaradigan ishida o'zgalardan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat o'z ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki hech kimning xayoliga kelmaydigan g'oyalar orqali amalga oshirishadi. Shunday ekan kreativlik muvaffaqiyatimiz kaliti desak adashmaymiz. Kreativlikni shakllantirishda tasavvur muhim ro'l o'ynaydi. Dunyoga mashur olim Albert Eynshteyn "Tassavur bilimdan muhimdir", deganida aynan shuni nazarda tutgan. Ko'pincha yangi fikrlar, yechimlar, kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berishimiz zarur. G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratdi, og'irimizni yengil,

uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutahasislarga talab katta. [2]

Shu bilan bir qatorda psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o'rganuvchi alohida yo'nalish – ijodkorlik psixologiyasi yo'nalishi vujudga kelgan. Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity – inglizcha ijodiy)likni o'rganishdan iborat. Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e'tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilmayotgan bo'lsa ham bu tushunchani ma'lum darajada pedagogik iste'molga kiritishga doir harakatlar ko'zga tashlanmoqda. Pedagogikaga oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog'liq holda o'rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog'liq holda tahlil etiladi.

Taqdim etilayotgan kreativlik treningi katta maktab yoshidagi o'quvchilarga va kichik bosqich talabalariga mo'ljallangan, lekin dasturga ayrim qayta ishlanmalar kiritilsa boshqa yosh toifasidagilar bilan ham o'tkazish mumkin. Guruhdagi ishtirokchilarning eng optimal soni 8–16 kishi, ayrim holatlarda 25–30 gacha ham bo'lishi mumkin. Tadqiqotdagi asosiy urg'u quyidagi muammolar yechimiga qaratilgan:

1. Kreativlik tarkibiga kiruvchi xususiyatlarni rivojlantirish ko'z yugurtirish, egiluvchanlik va tafakkurning o'ziga xosligi, kutilmagan assotsiatsiyalarni qidirib topishga;
2. Hayotiy muammolarni hal qilishda kreativlikdan foydalanish imkonikiyatlarini namoyon etish, shuningdek, shaxsiy va kasbiy maqsadlarga erishishga;

Biroq, unutmazlik lozimki, ko'rsatilgan vaqt nisbiy bo'lib, ishning haqiqiy davomiyligi bir qator omillarga qaram, xususan, guruhdagi ishtirokchilar soniga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha, aksariyat mashqlarda vaqt belgilab berilgan bo'lsa-da, ularning umumiy davomiyligi mashqlarni bajarishda aniq raqamli texnologiyalarni osqichlarga (g'oyalarni yaratish, chizish, taqdimotni tayyorlash va h.k.) bog'liq. Ko'rsatilgan vaqt berilgan mashqlar sonidan ko'proq bo'lish ehtimoli yuqori bo'lib, trener uchun mashqlarni tanlash imkoniyati tug'iladi. [3]

Har bir mashg'ulotni tasniflash qisqa tushuntirishlardan boshlanadi, shundan so'ng uning tarkibiga kiruvchi mashqlar tasvirlanadi. Ular yagona tizim bo'yicha bajarilgan mashqni o'tkazish jarayoni, uning psixologik mohiyati, muhokama va ayrim holatlarda bajarish misollarini keltirishdan iborat. Mashg'ulotlar va uning tarkibidagi mashqlarning ketma-ketligi ma'lumotlarni taqdim etishda tizimlilik tamoyiliga, hamda ijtimoiy-psixologik treninglarni tashkil etish qonun-qoidalariga amal qilgan holda tuziladi. Albatta, aynan bunday ketma-ketlik yagona me'yor emas, malakali trenerlar mashqlar jamlanmasidan "konstruktor" sifatida foydalanib, aniq vazifa va faoliyat talablaridan kelib chiqib, shaxsiy trening dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin. Shulardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz. [4]

Mashg'ulotning vazifasi ishtirokchilarni tanishtirish, birlashtirish, kreativlik hamda trening texnologiyalari va ularning rivojlanishining mohiyati haqida umumiy tasavvurlarni yaratish. Qisqa tanishtiruv va 2-3 tanishuv texnikalarini o'tkazish maqsadga muvofiq. Keyingi

mashqlarga o'tishdan avval 15–20 daqiqa kreativlik, uning tarkibiy qismlari va qanday vaziyatlarda zarur bo'lishi haqida so'zlab berish lozim. Shuningdek, guruhda ishlash qoidalarini muhokama va qabul qilish kerak:

- Faollik namoyon etish;
- Bir-birini xalal bermasdan tinglash;
- Faqatgina o'z nomidan gapirish;
- Agar ma'lumot aniq bir insonga taalluqli bo'lsa, bevosita uchinchi shaxsdan foydalanmay gapirish;
- Mashg'ulotdan tashqari trening ishtirokchilari haqida shaxsiy ma'lumotlarni tarqatmaslik va muhokama qilmaslik;
- Mashqlarni bajarish jarayonida tanqiddan qochish, agar tanqid qilish ehtiyoji vujudga kelgan bo'lsa, mashq yakunida bo'ladigan muhokamani kutish;
- Ishtirokchi biron mashqni sababini tushuntirmay bajarishdan bosh tortishga haqqi bor, lekin qatnashmasligini barchaga eshittirishi lozim.

**“Ismdan tashqari barchasi”.** Ishtirokchilar juftliklarda tanishadilar (2-3 daqiqa, tanishuv shakli ixtiyoriy, undan tashqari har biri o'z sherigini qolganlarga tanishtiradi. Ismning haqiqiy aytiladi, qolgan ma'lumotlar ismi boshqa ishtirokchilarning yodida qolishi uchun to'qib chiqariladi).

**“Uch fakt”.** Har bir ishtirokchi o'z ismi va o'zi haqidagi uchta faktni aytadi. Ulardan biri haqiqiy va ikkitasi yolg'on. Qolgan ishtirokchilarning vazifasi taqdim etilgan faktlarning qaysi biri rost ekanligini aniqlash (har bir faktning haqiqiy yoki haqiqiy emasligiga ovoz berish taklif etiladi). So'ngra o'zini tanishtirgan ishtirokchi haqiqatni oshkor etib: faktlardan qay biri rost ekanligini tan oladi.

**“Men bilaman”.** Ishtirokchi koptokchani ushlab gapiradi: “Men (ism-sharifi), men bilaman (biron bir mashhur insonning nomini aytadi)”, undan so'ng koptokni o'zga ishtirokchiga oshiradi, qabul qilgan ishtirokchi ham o'zini xuddi shu tartibda tanishtiradi. Undan avvalgi ishtirokchining ismining bosh harfiga mashhur insonning familiyasi bosh harfi boshlanishi lozim. Koptok bir ishtirokchiga ikki marotaba uzatilmaydi. Har bir ishtirokchi o'zini tanishtirgandan so'ng, koptok uzatilgan ketma-ketlikning teskari yo'nalishida uzatilib, ishtirokchi uzatmoqchi bo'lgan ishtirokchining ismi aytib oshiriladi.

**“Charxpalak” mashqi.** Mashqning tasnifi. Ishtirokchilar soni teng ravishda ikki kichik guruhlariga bo'linadi (agar ishtirokchilar soni toq bo'lsa, guruhlarining biriga olib boruvchi qo'shiladi). Birinchi kichik guruhga tushgan ishtirokchilar ichki doiraga joylashib, tashqi tomonga yuzlanadi, ikkinchi guruh a'zolari tashqi doiraga joylashib, birinchi doiraga yuzlanadilar. Shunday qilib, hamma ishtirokchining jufti bo'ladi. So'ng olib boruvchi (trener) muhokama uchun mavzuni taqdim etadi hamda rollarni taqsimlaydi. Masalan, ichki doirada o'tirganlar passiv rolni (diqqat bilan tinglashadi va yo'naltiruvchi savollar berishadi) bersa, tashqi doiradagi ishtirokchilarga – faol (so'zlab berishadi va berilgan savollarga javob beradilar) rolni taqsimlaydi. Bir yarim daqiqadan so'ng, trenerning yo'riqnomasiga asosan tashqi doira ichki doiraga nisbatan chapga yoki o'nga suriladi (yahni, juftliklar tarkibi o'zgaradi). Shuningdek, rollar taqsimotida ham o'zgarish sodir bo'ladi: tinglaganlar so'zlaydi,

so'zlaganlar sukut saqlaydilar va trener muhokama uchun boshqa mavzu taklif etadi. 2-3 mavzu muhokama qilinadi, ular qu'yidagicha bo'lishi mumkin:

- mening yutuqlarim;
- mening malaka va ko'nikmalarim;
- men haqimda atrofdegilar ... bilmaydilar.

Mavzular jamlanmasi boshqacha bo'lishi ham mumkin, lekin ular ham shaxsga ijobiy nuqtayi nazardan o'z-o'zini kashf etish, ijobiy xislatlari, kuchli tomonlari, qobiliyatlarini ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ishtirokchining zaif tomonlari va kamchiliklarini muhokama qilish kerak emas.

Mashqning psixologik ma'nosi. Tanishuv, pozitivlik nuqtayi nazaridan o'z-o'zini kashf qilish, o'zining kuchli tomonlarini qidirish va anglash. Mashqda an'anaviy muloqotda uncha oqlanmaydigan, biroq ijodiy jihatdan o'z-o'zini kashf etish uchun o'zgina maqtanish imkoni beriladi. Xulosa o'rnida insonning ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni keltirib o'tamiz:

- Bilim va malaka bazasini rivojlantirish asosida ijod qila olish imkonini beruvchi axborotlar zahirasi yig'ish va tizimlashtirish, shuningdek, ushbu faoliyat turiga muvofiq keluvchi zaruriy malakalarni takomillashtirish;

- Ijod qilishga undovchi muhitni yaratish. Ushbu muhitning kalit tavsifi - g'oyalar vujudga kelish bosqichida tanqiddan yiroq bo'lish, muammoni yangi tomondan ko'rishga xalal berayotgan ichki to'siqlarni yengishga imkon beradi.

- Analogiyalar (taqqoslashlar) qidirish. Vazifaning ijodiy yechimi boshqa muammoli vaziyatlar o'rtasida umumiy bo'lsada, analogiyasi qidirib topilganda, yechim imkoniyatlari sezilarli darajada o'sadi.

Bu metodlar kreativ fikrlashni rivojlantiradi, shuningdek, texnologiya fanini o'qitish metodlarining ahamiyati haqida keng qamrovli fikrlar mavjud. O'quvchilarda kreativ fikrlashni oshirishda yuqoridagi asosiy metodlar va yondashuvlar muhim o'rin tutadi:

Shunday qilib, texnologiya fanini o'qitishda kreativlikni oshirish uchun o'quvchilarda yangi g'oyalarni yaratish, o'zlarini ifodalash va jamoaviy ishlarni olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Bu esa, o'z navbatida, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurov.B.T. Modulli-kompetentli yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish. Zamonaviy ta'lim. - Toshkent, 2020. 2-son, 9-15-betlar.

2. Rahimov Z.T. Pedagogik kompetentlik ta'lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida. "Zamonaviy ta'lim" ilmiy-amaliy ommabop jurnali. - 2019. 7-son. 4-bet.

3. Toshtemirova S.A., Izzatova R.U. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim oluvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar. - Chirchiq, 2021. 836-840-betlar.

4. Uluxanov, I. T. X. J., & Ubaydullaev, S. Q. (2021). O'quvchilarning kreativ kompetentlikini shakllantirish mezonlari. Scientific progress, 2(8), 814-822.

# MUNDARIJA

## PEDAGOGIKA

<i>Umarov Azizbek Vaxobovich</i> MEDIA TA'LIMNING PEDAGOGIK TIZIMIDAGI O'RNINI VA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI .....	4
<i>Azizova Dilzaxon Mashrabovna, Gofurjanova Nilufarxon Kadirjon qizi</i> TALABALARNING O'QISH SAVODXONLIGIDA INTERPRETATIF TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	8
<i>Mirzaev Otabek Khusanovich</i> BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASINI MAKTABGACHA TA'LIMDA TUTGAN O'RNINI .....	13
<i>Umnov Dmitry Gennadevich</i> DEVELOPMENT OF CHILDREN'S RESILIENCE TO ADVERTISING: PREPARING EDUCATORS TO ADDRESS THE ISSUE OF TARGETED MARKETING PRESSURE ON PRESCHOOLERS .....	16
<i>Гофуржанова Нилюфар Кадыровна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ .....	28
<i>Qodirbekova Zebaxon Jasurbek qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNLI MASALALAR VOZITASIDA KONSTRUKTIV TA'LIM MUHITINI YARATISH VA STEAM INTEGRATSİYASINI AMALGA OSHIRISH .....	32
<i>Turg'untosheva Hamidaxon Rahmatullo qizi</i> AUTIZM SPEKTRLI BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARDA MOTIV VA EMOTSIONAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH: HARAKATLI O'YINLARNING TA'SIR MEKANIZMLARI .....	36
<i>Косимова Гуллола Муллажаноэвна, Халикова Хуршида Нейматовна</i> УЧЕБНИКИ ПОДДЕРЖИВАЮЩИЕ АКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ДИЗАЙНУ .....	43
<i>Olimova Sarvinaz Mashrabjon qizi</i> DIZARTRIYALI BOLALARDA DISPRAXSIYANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI .....	47
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i> MONTESSORI METODINING BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INTEGRATSİYA QILISHNING ISTIQBOLLARI .....	51
<i>Abdukadirov Bobirmirza Baxodirovich</i> OLIV TA'LIM TALABALARINING AXBOROT-TANQIIDYI KOMPETENTLIGI: TUSHUNCHANING MAZMUN-MOHİYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI .....	54
<i>Bayjonov Furgat Baxramovich</i> TA'LIM JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINI TAKOMILLASHTRISH: DILA VA JAMIYAT INTEGRATSİYASI ASOSIDA .....	59
<i>Ismoilova Nilufarxon</i> KREATIVLIK VA TANQIIDYI FIKRLASH KONTEKSTIDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH .....	66
<i>Raxmanov Omadjon Mamasidiq o'g'li</i> PEDAGOGIK PLATFORMA TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY MOHIYATI VA OLIV TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNINI .....	70
<i>Bozorbayeva Mahira Shavkatbek qizi</i> INNOVATSION YONDASHUVLAR DRODALI TARBIIYACHILARNING KASBIY O'SISHINI TA'MINLASH .....	77
<i>Matkarimov Jaxangir Salaydinovich</i> TABIIY FANNI O'QITISH JARAYONIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARIGA DOIR .....	81

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<i>Аскароев Шакирджан Махмудович</i> ПРАВА ЖИВОТНЫХ В МИРЕ И В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ, НРАВСТВЕННЫЕ И РЕЛИГИОЗНЫЕ АСПЕКТЫ .....	86
<i>Курбанова М.Т</i> КРАЕВЕДЧЕСКИЕ ТЕКСТЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ РЕЧЕМЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ .....	96
<i>Abdusamatov Dzodbek Olimjon o'g'li</i> YOSHLAR ONGIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAHALLANING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI .....	100
<i>Odilov Kamiljon Furgatjon o'g'li</i> XORIJY TILLARNI O'QITISH SOHASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLAB QOLGAN HOLDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH .....	104
<i>Maksumova F.K</i> MADONNING TARIXIY-NAZARIY ILM MAKTABI .....	110
<i>Alisherova Zulfiya Talibdjanovna</i> O'SMIRLIK DAVRIDAGI "KATTALIK HISSI" VA PSIXIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI .....	114

## ANIQ VA TABIIY FANLAR

<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich, Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi</i> FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA MIND MAPDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	118
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon ugli, Alijanova Charasay Murodjon qizi</i> EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING THROUGH A COMPARISON OF TRADITIONAL AND CASE STUDY METHODS .....	128
<i>L.S. Yunusov, F.Yu. Axmedov, M. Maxsudova, K.M. Turg'unbayeva</i> MUNTAZAM SPORTNING YENGIL ATLETIKA TURI BILAN SHUG'ULLANADIGAN 14-16 YOSHDAGI BOLALARNING MORFOLOGIK VA FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	139
<i>Zakirjanov Sarvar, Zaynabiddinov Ibrokhimjon</i> ON A LINEAR PURSUIT DIFFERENTIAL GAME IN $R^n$ .....	147
<i>Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi</i> TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHLARINI OSHIRUVCHI TA'LIM METODLARI .....	154
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon o'g'li, Karimova Masturaxon Turg'unali qizi</i> EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TEACHING BASED ON THE FLIPPED CLASSROOM MODEL .....	159
<i>Ashurova Gulchexra Dadajanovna, Matniyazova Hilola Xudaybergenovna</i> ARACHIS HYPOGAEA L. (YERYONG'OD) O'SIMLIGIDA SUV ALMASHINUVINING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA MIKROBIOLOGIK O'G'ITLARNING TA'SIRI .....	172
<i>Nizamova Bashoratxon Begaliyevna, Abduhamidova Unaxon Ilhomjon qizi</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYANI O'QITISHDA "BOBURNOMA" MA'LUMOTLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI .....	177
<i>Axmedov Shavkatbek Baltabayevich</i> INTEGRATIV YONDASHUVNI - O'QUVCHILARDA O'QUV FANGA DID KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI .....	183
<i>Ergashev Bilaliddin Mirsharibjon O'g'li, Ergasheva Fatimaxon Sadiqjon qizi</i> "DATTIQ JISMLARNING MEKANIK XOSSALARI" MAVZUSINI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	188